



# PEDAGOG

## MINBARI

2018


№ 3

2015-yildan

chiqa boshlagan



ILMIY-PEDAGOGIK, METODIK, MA'NAVİY-MA'RİFIY JURNAL

THE TRIBUNE OF A TEACHER  
ТРИБУНА ПЕДАГОГА



Øquvchilarni mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatish.....2

"Aste'dod buloglarining ko'zini ochaylik".....7



Професионализм педагогов в реализации преемственности обучения в дошкольном образовательном учреждении начальной школы.....24

Некоторые направления деятельности по работе с резервом кадров.....25



# PEDAGOG MINBARI

THE TRIBUNE OF A TEACHER  
ТРИБУНА ПЕДАГОГА

USHBU SONDA:

BOSH MUHARRIR:  
Abduhamid MUXTOROV  
Mas'ul kotib:  
Olim USMONOV  
Musahhih:  
Muxlisa DO'ST MUHAMMEDOVA  
Sahifalovchi:  
Dilshod AKRAMOV

TAHRIR HAY'ATI:  
Abdurahim NOSIROV  
Muzaffar HOSHIMOV  
Maqsudjon YO'L DOSHEV  
Murodilla XOLMUHAMEDOV  
Shavkat SHARIPOV  
Malohat A'ZAMOVA  
Inomjon MAJIDOV  
Uzoqboy BEGIMQULOV

MUASSIS:  
"Maktub print"  
*mas'iliyati cheklangan jamiyat*  
*Jurnal O'zbekiston Respublikasi*  
*Matbuot va axborot agentligida 0855*  
*raqam bilan 30.07.2015-yilda*  
*ro'yxatga olingan.*

Tahririyat manzili:  
100129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Telefon: (0 371) 244-75-88,  
e-mail: [pedagog\\_minbari@umail.uz](mailto:pedagog_minbari@umail.uz),  
[4403716@mail.ru](mailto:4403716@mail.ru)  
Bosimaxonaga 21.05.2018-yilda topshirildi.  
Ofset usulida chop etildi.  
Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{2}$ .  
Shartli bosma tabog'i 2.  
«Times» garniturası, 11,12 kegl.  
«ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ  
bosimaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent sh. Uchtepa t TAKD 11/10 uy.  
Buyurtma № Adadi 2500 nusxa.  
Bahosi shartnomasi asosida.


<i>Muallim minbari</i>		
<b>Hilola SUYUNOVA</b>	O'quvchilarni mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatish.....	2
<b>Tavsiya</b>		
<b>M.MAHMUDOV</b>	Oilada "tarbiyasi og'ir" o'smirlarni tarbiyalash .....	4
<b>Farida AFRUZ</b>	"Iste'dod buloqlarining ko'zini ochaylik" .....	7
<b>Nargiza TOJIYEVA</b>	<i>Dars ishlantma</i>	
	Qadimgi yunoniston madaniyati .....	10
<b>S.MADAMINOV</b>		
	3 Ni ko'paytirish va 3 ga bo'lish .....	12
	<i>V biblioteku</i>	
<b>By Yiruma.</b>	River flows in you .....	15
	<i>Мысли вслух</i>	
<b>Феруза РАХМАНОВА</b>		
	Vechno yoniy Navruz.....	19
	<i>Методика. Опыт</i>	
<b>Елена БАРХАНСКАЯ</b>		
	Litosfera i rельеф Zemli .....	21
	<i>Используйте эти материалы</i>	
<b>Орзигул ХУЖАМКУЛОВА</b>	Профессионализм педагогов в реализации преемственности обучения в дошкольном образовательном учреждении и начальной школе.....	24
<b>Зинаида Ким</b>		
	Nekotorые направления деятельности по работе с резервом кадров .....	25
	<i>Xorijiy tajriba</i>	
<b>Vazira IBROHIMOVA</b>		
	Matematik mahoratda kim yetakchi? .....	28
	<i>Salomatlik sirlari</i>	
<b>Rahima CHO'LPONOVA</b>		
	Mikronutriyentlarning inson organizmiga ta'siri .....	31

## OILADA “TARBIYASI OG‘IR” O‘SMIRLARNI TARBIYALASH

Ota-onalar tomonidan ishlatiladigan har qanday tarbiya vositalari o‘smirda ijobjiy xususiyat va yuqori g‘oyaviy ko‘zlangan maqsadni shakllantirishdan iborat bo‘lishi lozim. O‘z davrining yetuk ma‘rifatparvari Abdulla Avloniy XX asr boshlarida axloq, ta’lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlangan “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ijtimoiy va axloqiy, ta’limiy qarashlarini bayon etgan holda tarbiyani to‘rt turkumga: “Tarbiyaning zamoni”, “Badan tarbiyasi”, “Fikr tarbiyasi” va “Axloqiy tarbiya”ga bo‘ladi. Insonni tarbiyalashda bu to‘rt masala g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. A.S.Makarenkoning ta‘kidlashicha, aniq tarbiyaviy, siyosiy maqsadni qo‘ymay turib, insonni tarbiyalab bo‘lmaydi. Maqsadga yo‘naltirilgan tamoyillar o‘smirlarni rostgo‘y va vijdonli bo‘lishga, ularning ijobjiy xulq-atvorini shakllantirish, yomon xislatlarni yo‘qotishga qaratilmog‘i lozim. Shu o‘rinda tarbiya uslublari tizimini o‘rganish, ya‘ni zarruriy xulq- atvorni shakllantirish maqsadida, shaxsga tarbiyaviy-tashkiliy ta’sir ko‘rsatish yo‘llari va uslublari majmuyi orqali singdirish yaxshi samara beradi. Tarbiya uslubining to‘g‘ri tanlanganligi ular tarbiyasiga ijobjiy turtki bo‘ladi. Oilada o‘smirlarni tarbiyalashda ishontirish, ijobjiy natija, rag‘batlantirish va jazolash kabi uslublar asosiyalaridan hisoblanadi.

Bolalarni tarbiyalashda ishonch yoki ishontirish uslubi yetakchi o‘rin tutadi. Bu uslubni qo‘llashda ota-onalardan samimiylilik va rostgo‘ylik talab qilinadi. Ishontirish uslubining asosiy shakllaridan biri suhbat bo‘lib, bunga puxta tayyorgarlik talab etiladi. Suhbat asosan, o‘smirning nojo‘ya xatti-harakatini tahlil qilgan holda ko‘riladi. Ishontirish bi-

lan birgalikda ota-onalar boshqa, ya‘ni buyruq berish, pand-nasihat qilish, ehtiyojkorlik shakllarini ham qo‘llashlari lozim. Nasihat qि-



lish jonga tegadigan va har qanday holatda injqliq qilishga majburlashga aylanmasligi kerak. Ishontirishda do‘stoni maslahat berish usulidan foydalangan ma‘qul. Qayta tarbiyalashda mashq bajarish uslubi ham bo‘lib, bunda ijobjiy-axloqiy tajriba to‘plash maqsadida o‘smirning o‘zi jamiat uchun foyda keltiradigan faoliyatda ishtirok etadi. Bu ongli-axloqiy, xulq-atvor malakasini shakllantirish imkonini beradi. Mashq bajarish uslubi tizimlilikni talab etadi, uning doimiy qo‘llanilishi esa ijobjiy natijalarga erishish imkonini beradi. Tizimlilikka ko‘nikma hosil qilish haqida gap ketganda, A.Makarenkoning quyidagi fikrlarini keltirish joiz: “Agar biron bir narsa bir kun qilinsa, bu juda qiyin kechadi, agar bu ish bir oy bajarilsa, osonroq kechishi mumkin, agar da bir yil bajarilsa, juda ham oson kechadi”.


Ma‘naviy-axloqiy odatlarning hosil bo‘lishi xulq-atvor va xatti-harakatlarning ijobjiy

siljishini ta'minlaydi. Oilada o'quv mehnati ko'nikma va malakasi shakllanishi jarayoni yanada yaxshiroq natija berishi uchun ota-onalar quyidagilarga ahamiyat qaratishi lozim:

- bilim olishda qiziqtira oladigan dalillarni ishlata olish, guruhdagi namunali o'quvchilar darajasini ko'tarib, namuna qilib ko'rsatish;
- o'smirni yomon o'zlashtirishi uchun jazolamasdan, qiynalayotgan fanlariga ko'maklashish;
- o'smirga bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishga yordamlashish va unga jamiyat oldidagi mas'u-liyatni bajarish ko'nikmalarini singdirish;
- jamoaga bo'y sunish va jamoaviy ishlarda faol qatnashishga ko'maklashish.

Axloqiy ko'nikmalarni shakllantirishda o'smirlarga tizimli talablar ko'rsatish zarur, shakllanadigan malakaning maqsadini tu-shuntirish lozim. O'smir axloqiy ko'nikma-ning hayotiy mazmunini bilmay turib, uni qabul qila olmaydi. Buning uchun tarbiyachi malakani mustahkamlash uchun uning shaklanish bosqichlarini inobatga olishi lozim.

Axloqiy malakani shakllantirishda shaxsiy namuna asosiy o'r'in egallaydi. O'z farzandining tarbiyasi bilan shug'ullanadigan ota-onas, avvalambor, o'zlari namuna tariqasida bolalalar va oilaning boshqa a'zolari bilan yaxshi, samimi yunosabatda bo'lishi kerak, aks holda, oilada tarbiyasi "og'ir" o'smirlarni tarbiyalashda yaxshi natijalarga erishish dargumon.




Ijobiy namuna o'smirga, nafaqat namunali xatti-harakat ko'rinishi-bo'lib, balki chiroqli xulq atvorni chuqurroq anglashiga yordam berib, ma'naviy tushunchani shakllanishiga imkon beradi. O'smir uchun shaxsiy namuna uning ota-onasidir. Shu ma'noda A.Makarenko quyidagi fikrni aytadi: "Gapirganda kichgina o'zgarishni bola ko'radi va his qiladi, fikrimizdagi barcha burilishlar unga ko'rinas yo'llar orqali borib yetadi, siz esa buni payqamaysiz. Agar siz uyda salbiy holatlarni sodir qilsangiz, bu holda tarbiya haqida o'ylamasangiz ham bo'ladi; siz allaqachon farzandizni tarbiyalab bo'lgansiz va siz uchun tarbiyaga oid maslahatlar va usullarning hojati yo'q".

Bolalarni tarbiyalash tizimida ota-onalar oldida turgan asosiy vazifa - bu o'smirga, murosasiz yunosabatlarga, axloqsiz xulq-atvorga befarqlik hissini uyg'otish hisoblanadi. Ota-onalar o'rtasidagi shafqatsiz, sovuq yunosabatlar, ishonchszilik, ziqlanlik, qo'pollik o'smirni ulardan uzoqlashtiradi.

Har bir ota-onan o'z farzandini to'g'ri tarbiyalashni xohlaydi. Ammo hamma ham o'zining xulq-atvoriga tanqidiy qarash qobiliyatiga ega emas.

Tarbiyaga loqaydlikning oldini olishning asosiy sharti, tarbiyaning to'g'ri olib borilishi hamda ota-onalar va boshqa oila a'zolarining xulq-atvoridagi salbiy holatlarining bo'lmas-




ligi hisoblanadi. Bunday usullardan yana biri rag'batlantirish va jazolash choralaridir. Bolalarni tarbiyalash jarayonida, ba'zida jazolash usulini qo'llashga to'g'ri keladi, donishmandlar o'gitlari bo'yicha, tartib-intizom buzuvchilarga qarshi kurashda "targ'ibot va tashviqot olib borish bilan qoniqmay... kurashni majburlash orqali olib borish kerak". O'smir har doim jazolanishi sababini bilishi lozim, aks holda, unga beriladigan jazo hech qanday naf bermaydi. O'smirlarga beriladigan jismoniy jazo uning tarbiyasiga katta zarar yetkazadi, bu o'smir bilan kattalar o'rtasidagi nizoga sabab bo'lishi mumkin. Rag'batlantirish va jazolash o'rtasida ziddiyat bo'lmasligi kerak. Bularni qo'llashda huquqiy normalarni inobatga olish hamda fuqarolar huquqi hamda bolalar majburiyatları haqidagi tushunchalarni to'g'ri qabul qilish lozim. Jazolashning maqsadi uning o'z vaqtida qo'llanilishi, zarurligi hamda ehtiyyotkorligi, shaxs va uning xatti-harakatining me'yorida bo'lishidan iborat. Bolaning rag'batlantirish va jazolashdagi hissiy holati haqidagi tushunchani to'g'ri qabul qilish juda zarur, chunki ko'rsatib o'tilgan usullarning tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilganligi asosida ushbu masalalarning mosligi yuqoriligiga erishish yotadi.

Rag'batlantirish va jazolash – bu munosabatlarni tarbiyaga solish vositalari majmuyi bo'lib, pedagogik holatni tashkil etadi. Rag'batlantirish jazolashning turlari va shakllari guruhanishining asosiy belgilari bo'lib, bolalar faoliyatini rag'batlantirish va to'siqlar uslubi, ularning munosabatlariga o'zgartirish kiritish usullari kiradi.

Oila a'zolari o'rtasidagi hurmat, xotirjamlik hissiyoti bola tarbiyasi to'g'riliidan dalo-lat beradi. Oila xotirjamligi asosida ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi samimiylig, bir-biriga ishonch munosabatlari yotadi.

Oilada farzandning barkamol ulg'ayishi uchun tarbiyaga yuqori darajada mas'ul bo'lishi, ularning xatti-harakatlariga maqsadli yondashuvi hamda individual ravishda ta'sir ko'rsatishning to'g'ri tanlanishi talab etiladi.

Ba'zi oilalarda tarbiyalangan bolalarni kuza-tish natijasi shuni ko'rsatadiki, ularning qahri qattiqligi va atrofdagilar bilan chiqishmasligi



o'smirlarning hissiyotga tashnaligidan dalo-lat beradi, oilada paydo bo'lgan hamda bola dunyosi hissiyotining shakllanishiga o'z ta'siri ko'rsatadi.

Dunyoga kelishdan maqsad yashashdir, yashashdan maqsad esa jamiyatimiz uchun foydali mehnat, xizmat qilishdan iborat.

Xalqimiz azaldan o'z ma'naviy qadriyatla-ri va diniy e'tiqodini qadrlab kelgan, shuning uchun u eng mushkul damlarda ham o'zligini yo'qotmagan.

Hayotda, shu narsa ma'lumki, tarbiya ko'r-magan odamga ta'lim berish ham mushkul vazifadir. Zotan tarbiya mujassam bo'lgan insondagina hayot yo'llaridan qoqilmay olg'a borish, orzu-maqsadlariga yetishish, el-u yurt xizmatida bo'lish ufqlari keng bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, kamol topayot-gan avlodga o'zbek xalqining milliy qadriyat-lari, boy milliy merosimiz, o'zbekona insoniylik fazilatlarimizni singdirish o'qituvchi, pedagoglar oldidagi eng muhim vazifalardan sanaladi.

M. MAHMUDOV,  
BuxDU «Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport» kafedrasи o'qituvchisi